

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.13/30.12.2019.T.07.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI” MILLIY
TADQIQOT UNIVERSITETI**

ISMATOV BAXTIYOR SA‘DULLA O‘G‘LI

**GIDROTEXNIKA INSHOOTLARINI LOYIHALASHDA GEOMETRIK
MODELLASHTIRISH USULLARINI QO‘LLASH**

**05.01.01-“Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va
videotexnologiyalari”**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Ismatov Baxtiyor Sa'dulla o'g'li

Gidrotexnika inshootlarini loyihalashda geometrik modellashtirish usullarini
qo'llash..... 3

Исмагов Бахтиёр Саъдулла угли

Применение методов геометрического моделирования при проектировании
гидротехнических сооружений..... 25

Ismatov Bakhtiyor

Application of geometric modeling methods in the design of hydraulic
structures..... 49

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 53

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.13/30.12.2019. T.07.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI” MILLIY
TADQIQOT UNIVERSITETI**

ISMATOV BAXTIYOR SA‘DULLA O‘G‘LI

**GIDROTEXNIKA INSHOOTLARINI LOYIHALASHDA GEOMETRIK
MODELLASHTIRISH USULLARINI QO‘LLASH**

**05.01.01-“Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va
videotexnologiyalari”**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4. Phd/T5060 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tuit.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Kuchkarova Dilarom Fayzullayevna
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Muxamadiyev Abduvali Shukurovich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Sindarov Raxmat Uralovich
texnika fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent axborot texnologiyalar universiteti huzuridagi DSc. 13/30.12.2019. T.07.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "___" "_____" soat ___ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi, 108-uy. Tel.: (+99871) 238-64-43, e-mail: iktuit@tuit.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent axborot texnologiyalar universiteti Axborot resurs markazida tanishish mumkin(____ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi, 108-uy. Tel.: (+99871) 238-64-43 e-mail: iktuit@tuit.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "___" _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil "___" _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

M.M. Musayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi, t.f.d., professor

E.Sh. Nazirova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor

F.M. Nuraliyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash huzuridagi ilmiy seminar
raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi gidrotexnik inshootlarini loyihalash jarayonida judda katta yutuqlarga erishishga imkon yaratmoqda. Gidrotexnika inshootlarini loyihalash jarayonida modellashtirish usullaridan foydalanish hozirgi zamonning dolzarb muammolaridan biridir. Mazkur soha bo'yicha xorijiy mamlakatlarda, shu jumladan, Xitoy, AQSH, Hindiston, Germaniya, Italiya, Rossiya Federatsiyasi, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Dunyoda ko'plab gidrotexnik inshootlarining keng ko'lamliligi, murakkabligi va turli maqsadlarda foydalanishligini hisobga olgan holda, ushbu inshootlarni loyihasining dastlabki qiymati eng qimmat muhandislik inshootlari qatoriga kiradi. Misol uchun, dunyodagi eng qimmat muhandislik loyihalaridan biri Xitoyning Yantszi daryosidan suv oqimini yo'naltirish bo'yicha milliy mega-gidroloyihaning taxminiy qiymati 50 milliard AQSh dollari bo'lgan. Shuningdek, gidrotexnik inshootlarni loyihasini tuzish jarayonida yuzaga kelgan muammolar natijasida ko'plab talofatlar kuzatilgan. Misol uchun, Xitoyning Xenan shahridagi 62 ta to'g'on zanjirining uzilishi natijasida 26 000 dan ortiq va Hindistondagi Machxu-II to'g'onining buzilishi natijasida 2000 dan ortiq insonning hayoti o'lim bilan tugagan. Shuning uchun gidrotexnika inshootlarning loyihasini tuzish jarayoniga modellashtirish usullarini qo'llash algoritmlarini ishlab chiqish, tizimga raqamli texnologiyalarni kengroq joriy qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bunday masalalarni yechish uchun raqamli ishlash jarayoniga geometrik modellashtirish usullarini qo'llash orqali loyiha bir nechta variantlarini qisqa vaqt ichida tuzib chiqish va optimal variantni tanlab olish orqali loyihalash jarayonini optimallashtirish lozim bo'ladi.

Respublikamizda gidrotexnika inshootlarini loyihalash jarayoniga modellashtirish usullaridan foydalanagan holda raqamli texnologiyalarni joriy qilish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Prezidentimizning 2021-yil 6-apreldagi PF-6200 "Suv resurslaridan foydalanishda davlat boshqaruvi va nazorati tizimini yanada takomillashtirish va suv inshootlari xavfsizligini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi sonli farmoni¹.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 30-avgustdagi 865-son "Gidrotexnika inshootlari xavfsizligi" to'g'risidagi qarorida ham hozirga kelib ushbu sohalarini rivojlantirish, Gidrotexnika inshootlar xavfsizligini ta'minlash uchun asosiy chora-tadbirlar belgilab berilgan. Tizimga raqamli texnologiyalarni joriy qilish bo'yicha Prezidentimizning 2021-yil 10-dekabrda PQ-42-sonli "Iqtisodiyot tarmoqlari uchun muhandis kadrlarni tayyorlash tizimini innovatsiya va raqamlashtirish asosida tubdan takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risida"gi 2023-yil 24-maydagi PQ-162-sonli "Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora

¹ Prezidentimizning 2021-yil 6-apreldagi PF-6200 "Suv resurslaridan foydalanishda davlat boshqaruvi va nazorati tizimini yanada takomillashtirish va suv inshootlari xavfsizligini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi sonli farmoni

tadbirlari to'g'risida"gi qarori va 2024-yil 26-fevraldagi PQ-87-sonli "Mamlakatimizda raqamlashtirish sohasidagi xizmatlar eksportini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi. Ushbu vazifalarni ijrosini ta'minlashda jumladan, loyihalash jarayoniga geometrik modellashtirish usullarini qo'llash orqali gidrotexnika inshootlarini loyihalash jarayonining umumiy algoritmlarini dasturiy ta'minot qismini tuzib chiqish va loyihalash jarayonini optimallashtirish, loyihalash jarayonidagi muhim masalalarni yechish bugungi kunning dolzarb muammolaridan hisoblanadi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. "Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining o'rganilganlik darajasi. Gidrotexnika inshootlarini loyihalashda geometrik modellashtirish usullarini qo'llash algoritmlarini ishlab chiqish muammolari ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Loyihlash jarayoniga geometrik modellashtirish usullarini qo'llash bo'yicha xorijiy olimlar: Kashenko N.A., Popov A.B., Rukovoshnikov V.A., Zamyatin A.V., Korotin A.C., Kochneva A.A., Kravchenko Y.A., Nguen T.K. Novakovskiy B.A. Ciminov Y.G., Chernova L.I., Chernishova O.A., Foks A., Pratt M., Fuks A.L., Musona O.R., Demidenko A.G., Yastrebova A.I., Musixina B.B., Kurkova Yu.S., Baranova Yu. B., Kantemirova Yu.I., Kiselevskiy E.B., Bolsunovskiy M.A., Popova Y.V., Korotina A.S., Klimenko A.S., Bugrova N.V., Golubeva V.I., Florinskiy I.V. va boshqa olimlar tomonidan ilmiy-tadqiqotlar olib borilgan.

Respublikamizda gidrotexnika inshootlarini loyihalash jarayoniga geometrik modellashtirish usullarini qo'llash bo'yicha D.F. Kuchkarova va M.R. Bakiyevlar ilmiy-tadqiqot ishlari olib borganlar. Professor D.F. Kuchkarova topografik sirtlarni nazariyasini tuzib chiqish jarayoniga geometrik modellashtirish usullarini qo'llash algoritmlarini ishlab chiqqan.

Hozirgi kunda S.S.Saidaliyev, B.U.Xaitov, F.D.Shodiyev, R.U.Sindarov, A.B.Xalimbetov, Q.Yakubov va Sh.Panjiyev kabi bir qator olimlar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Mazkur sohadagi tadqiqotlarning o'rganilganligi shuni ko'rsatadiki, hozirgi vaqtda loyihalash jarayoniga modellashtirish usullaridan keng foydalaniladi. Ushbu sohadagi tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, hozirda bir nechta muqobil loyihalarni yaratish va ular orasidan maqbulini tanlashning ishonchli usullari mavjud emas. Shuningdek, geometrik va matematik modellashtirishga asoslangan avtomatlashtirilgan loyihalash usullarini yaratish masalalari yetarli darajada yoritilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlarining rejasi 2023-yil 26-

yanvardagi №4.7 bandi “Gidrotexnika inshootlarini loyihalashda geometrik modellashtirish usullarini qo‘llash” (2023-2024) mavzusidagi loyihalar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Gidrotexnika inshootlarini loyihalash jarayoniga geometrik modellashtirish usullarini qo‘llash algoritmlarini ishlab chiqish va loyihalash jarayoni samarasini oshirishda foydalanish.

Tadqiqotning vazifalari:

dastlabki geodezik ma’lumotlarga ishlov berishda splayn funktsiya usulini takomillashtirish va relyef gorizontallarini tuzish algoritmlarini ishlab chiqish;

berilgan hududda gidrotexnika inshootlarini yer sirtining murakkablik darajasini baholash algoritmlarini topografik sirtning topologik xususiyatlaridan foydalangan holda ishlab chiqish;

tuzib chiqilgan loyiha variantlari orasidan optimal loyiha variantini tanlab olishda qaror qabul qilish nazariyasi usullaridan foydalanish algoritmlarini ishlab chiqish;

gidrotexnik inshootlarni loyihalashning unifikatsiyalashgan algoritmlari asosida dasturiy ta’minotning funktsional sxematik tuzilishini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiiq qilish.

Tadqiqot obyekti gidrotexnika inshootlari loyiha tuzish jarayoni va zamonaviy avtomatlashtirilgan loyiha tuzish tizimlari.

Tadqiqotning predmeti sifatida gidrotexnika inshootlari loyiha tuzish jarayonida qo‘llaniladigan geometrik va matematik modellar, algoritmlar va dasturiy majmuani qo‘llash texnologiyalari.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda zamonaviy geometrik va matematik modellashtirish usullari, raqamli ishlov berish nazariyasi, olingan natijalar qiyosiy tahlil qilish, optimallashtirish va qaror qabul qilish nazariyasidan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

dastlabki geodezik ma’lumotlarga ishlov berishda splayn funktsiya usuli takomillashtirildi va relyef gorizontallarini tuzish algoritmlari ishlab chiqildi;

berilgan hududda gidrotexnika inshootlar loyihasini tuzishda yer sirtining murakkablik darajasini baholash algoritmlari topografik sirtning topologik xususiyatlari asosida ishlab chiqildi;

tuzib chiqilgan loyiha variantlari ichidan optimal loyiha tanlab olish jarayoniga Pareto optimal usullarini qo‘llash algoritmlari ishlab chiqildi;

gidrotexnik inshootlarni loyihalashning unifikatsiyalashgan algoritmlari asosida dasturiy ta’minotning funktsional sxematik tuzilishi ishlab chiqildi va amaliyotga tadbiiq qilindi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

dastlabki geodizik berilmalarga tavsiya etilgan algoritmlar dasturiy ta’minot orqali ishlov berilgandan so‘ng ixtiyoriy gidrotexnik inshootni loyiha tuzish jarayoni osonlashadi va ananaviy usulga nisbatan kam vaqtni talab qiladi;

taklif etilayotgan algoritmlar yer uchastkasining dastlabki topografik tahlili orqali loyiha standartlariga muvofiqlik darajasini tezda aniqlash imkonini beradi;

tavsiya etilgan algoritmlar gidrotexnik inshoot loyihasining bir nechta variantida Pareto optimal variantini tanlash imkonini beradi;

tavsiya etilgan loyiha tuzish texnologiyalari loyihalash jarayonini vaqtini tejaydi;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi zamonaviy matematik va geometrik tahlil usullari, analitik geometriya, optimizatsiya usullari, qaror qabul qilish nazariyasi usullarini qo'llash orqali va kompyuter dasturlash vositasi bilan tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalari gidrotexnik inshootlarini loyiha tuzish jarayonida dastlabki geodizik ma'lumotlarni taxlil qilishda yer uchastkasini geometrik modellashtirish orqali unifikatsiyalashgan algoritmlar yaratilgan.

Yaratilgan algoritmlar spline funktsiya usuli, analitik geometriya usullarini o'z ichiga olib chizish jarayonini osonlashtirib vaqtini tejaydi. Tavsiya etilgan texnologiyalar ixtiyoriy yer uchastka topografik taxlilini amalga oshirish imkonini beradi va oldindan loyiha jarayoni hajmini aniqlaydi. Shu bilan bir vaqtda ko'rib chiqilgan metodika ma'lum metodikalardan loyiha tuzuvchiga jarayonni osonlashtirib bir nechta variant tuzishga imkon yaratadi. Tuzilgan variantlardan Pareto optimal variantni tanlash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Dissertatsiya doirasida gidrotexnika inshootlarini loyihalashda geometrik modellashtirish usullarini qo'llash bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan algoritmlar va dasturiy majmua asosida:

gidrotexnika inshootlarini loyihalashda geometrik modellashtirish usullarini qo'llash bo'yicha olingan ilmiy natijalar "Navoiy Suv loyiha" MChJda amaliyotga tadbiiq qilingan. Mazkur uslubiyotda loyiha tuzish jarayoniga geometrik modellashtirish usullarini qo'llash orqali yer uchastka gorizontallarini aniq berilishi takomillashtirilgan, Pareto optimal usullariga ko'ra loyiha tegishli o'zgartirishlar kiritilishi, loyiha chizmasining bir nechta variantlarini tuzish va shulardan maqbul variantni tanlash usuli taklif qilingan;

tavsiya qilingan gidrotexnika inshootlarni loyihalash jarayoniga ta'luqli algoritmlar bo'yicha olingan ilmiy natijalar "Quyil Zarafshon Irrigatsiya tizimi havza boshqarmasi"da amaliyotda tadbiiq qilingan. Olingan natijalarga ko'ra ishlab chiqilgan algoritmlar gidrotexnika inshootlarning loyihasini tuzish jarayonini avtomatlashtirilgan holda barcha bosqichlarini qamrab olgan natijada loyiha tuzuvchi muhandisning ish vaqti 2 barobarga kamaydi mehnat unumdorligi esa 5-7% ga oshdi;

ilmiy tadqiqot ishi yuzasidan tuzib chiqilgan dasturiy ta'minot "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universitetining 70111202-"Muhandislik grafikasi va dizayn nazariyasi" magistratura mutaxassisliklarining o'quv rejasidagi "Muhandislik grafikasi fanlarining metodologiyasi" fani bo'yicha o'quv fan dasturiga kiritilib, o'quv jarayoniga joriy etilgan;

ilmiy tadqiqot ishiga Toshkent “SUV LOYIHA” MChJ tomonidan Suv Xo‘jaligi Vazirligiga ijobiy xulosalar olingan. (O‘zbekiston Respublikasi Suv Xo‘jaligi vazirligining 08.08.2024 yil № 02/13-2895-son ma’lumotnomasi). Natijada, loyihaga o‘zgartirishlar kiritilishi asosida loyiha chizmasining bir nechta variantlarini tuzish va optimal loyiha variantini tanlab olish usuli taklif qilingan. Dissertatsiya ishida dasturiy ta’minot asosida loyihachi muhandislarning ish vaqti qisqartirilishi va ish unumdorlik darajasini 5-7% oshirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 15 ta, jumladan, 5 ta xalqaro, 10 ta Respublikamiz ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya ishi bo‘yicha 29 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun asosiy natijalarni chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta ilmiy maqola, shularning 3 tasi xorijiy jurnallarda va 8 tasi respublika jurnallarda chop etilgan hamda 2 ta EHM uchun yaratilgan dasturiy vositalarni qayd qilish guvohnomalari olingan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi: Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 121 betni tashkil qilgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya tadqiqotining dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari, ob‘yekt va predmetlari keltirilgan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Gidrotexnika inshootlarini loyiha tuzish jarayoni tahlili va unga quyilgan zamonaviy talablar”** deb nomlangan birinchi bobida gidrotexnika inshootlari haqida umumiy ma’lumotlar va ularning loyihalarini tuzish jarayoni taxlili va unda yuzaga keladigan muammolarni rejalashtirilayotgan yechish usullari bayon qilingan.

Gidrotexnika inshootlarini loyihalashtirishning texnik - iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqlikni ko‘rib chiqilishi, loyihallashtirishda amalda bo‘lgan inshootlardan maksimal foydalanish va ularning ko‘tara olish zaxiraviy imkoniyatlari ko‘zda tutilishi hamda, loyihalashtiriladigan inshootlarning tuproqlari va ularning elementlari texnik holatini maxsus tekshirishlar orqali aniqlanishi batafsil keltirilgan.

Hozirgi davrda har bir loyihalash tashkilotining eng dolzarb masalalardan biri loyihani kam vaqt sarflagan holatda sifatli qilib ishlab chiqishdir. Shu sababli loyihalash tashkilotlarida zamonaviy kompyuter texnologiyalarning imkoniyatlaridan kengroq foydalangan holatda loyiha chizmalarining bir nechta

variantini ishlab chiqish hamda loyiha chizmalari orasidandan optimal hususiyatga ega bo'lgan loyiha chizmasi variantini tanlashga bo'lgan talab ortib bormoqda. Ushbu loyihalash jarayoniga geometrik modellashtirish usullarini qo'llash orqali erishish mumkin.


Gidrotexnika inshootlari loyihasini tuzish jarayonlari umumlashtirilgan algoritmlari quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- gidrotexnika inshootlarini loyihasini tuzishning asosiy nizomlari va loyiha tuzish talablari va qonun-qoidalarini asosida inshoot quriladigan hudud geodezistlar tomonidan borib yerning koordinatalari o'rganiladi;
- koordinatalarga asosan yerning gorizontallari chizib chiqiladi;
- inshootning berilgan o'lchamlarga mos holatda chizmasi va kerakli qirqimlar loyihachi muhandislar tomonidan chizib chiqiladi.

Ushbu jarayonga geometrik modellashtirish usullarini qo'llash algoritmlarini damba chizmasi misolida ko'rib chiqilgan:

Topografik sirtida berilgan nuqtalar orqali gorizontallar o'tkazish va ushbu topografik sirtida dambani loyiha chizmasini avtomatlashtirilgan dasturga kiritish algoritmini quyidagicha tuzib chiqish maqsadga muvofiq:

gorizontallarni o'tkazish uchun nuqtalar berilgan, shu nuqtalar ichidan bir xil applikatalarga ya'ni bir xil balandliklarga ega bo'lgan nuqtalar ajratib olinadi. Masalan balandligi 26 metr, 25 metr va h.k. nuqtalarni ajratib olib, ushbu nuqtalardan yer gorizontallarini o'tkazish uchun spline usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq.




1-rasm yer gorizontallarini chizish uchun berilgan nuqtalar

mana shu ajratib olingan nuqtalardan masalan balandligi 26 metrga teng bo'lgan 8 ta nuqta 25 metrga teng bo'lgan 7 ta nuqta va h.k. nuqtalar kelib chiqdi, ushbu nuqtalarning koordinatalarini ya'ni x va y larini belgilab qo'yiladi.

agarda berilgan nuqtalar soni 3 tadan ortiq va ushbu nuqtalardan egri chiziq o'tkazish kerak bo'lsa spline usullaridan kubik spline usulini ishlatishga to'g'ri keladi. Kubik spline usulining umumiy formulasi quyidagicha:

$$F_i(x) = a_i + b_i x + c_i x^2 + d_i x^3$$

$$f_1(x_1) = y_1 \quad f_1(x_1) = a_1 + b_1 x_1 + c_1 x_1^2 + d_1 x_1^3$$



2-rasm. Nazorat nuqtalari bilan berilgan yer gorizontali.

Bu misolda 19-gorizontalda beshta nazorat nuqtasi keltirilgan 2 -rasm. Har bir nuqta juftligi o'rtasida chap nuqta indeksi bilan bir xil raqamlangan funktsiya turi mavjud. Umuman, $f_i(x)=a_i + b_ix + c_ix^2 + d_ix^3$ nazorat nuqtalari orasidagi egri chiziqni ifodalovchi funktsiya hisoblanadi. Bunda har bir egri bo'lak kubik polinom funktsiya bilan ifodalanganligi uchun, har bir bo'lakni to'rtta koeffitsientini topilishi zarur.

koeffitsientlarni topish uchun egri chiziq bo'laklari nazorat nuqtasidan o'tishi zarur:

$f_i(x_i) = y_i$ $f_i(x_{i+1}) = y_{i+1}$ funktsiya tenglamasi egri chiziq o'zliksiz bo'lishini ta'minlab beradi.

Ushbu tenglamalar xar bir egri bo'lak uchun ikkita chiziqli tenglamani beradi.

$$a_i + b_ix_i + c_ix_i^2 + d_ix_i^3 = y_i \text{ va } a_i + b_ix_{i+1} + c_ix_{i+1}^2 + d_ix_{i+1}^3 = y_{i+1}$$

egri bo'laklar bir-biriga qo'shiladigan joyida bir xil silliqlikga ega bo'lishi uchun ikki funktsiya hosilalari olib tenglashtiriladi.

$$f_i'(x_{i+1}) = f_{i+1}'(x_{i+1})$$

$$f_i(x)=a_i + b_ix + c_ix^2 + d_ix^3 \quad f_i'(x)=b_i + 2c_ix + 3d_ix^2$$

$$b_i + 2c_ix + 3d_ix^2 = b_{i+1} + 2c_{i+1}x + 3d_{i+1}x^2$$

$$\text{yoki } b_i + 2c_ix + 3d_ix^2 - b_{i+1} - 2c_{i+1}x - 3d_{i+1}x^2 = 0$$


to'rtinchi tenglamani olish uchun egri bo'laklar bir-biriga qo'shiladigan joyda egrilik radiusi bir xil bo'lishi uchun tenglamalardan yana bir marta hosila olinadi.

$$f_i(x_{i+1})'' = f_{i+1}(x_{i+1})''$$

$$f_i''(x) = 2c_i + 6d_ix = 2c_{i+1} + 6d_{i+1}x_{i+1}$$

$$\text{yoki } 2c_i + 6d_ix - 2c_{i+1} - 6d_{i+1}x_{i+1} = 0$$

noma'lum koeffitsientlar uchun chiziqli tenglamalar topib olindi. Chiziqli tenglamalar yordamida $Ma = y$ matritsani yechishga to'g'ri keladi, ushbu tenglamalar sestimasini va matritsani qo'lda yechish judda qiyin lekin avtomatlashtirilgan dasturda bu judda ham oson. Gidrotexnika inshootining ya'ni dambaning qolgan gorizontallarini o'tkazish avtomatlashtirilgan dasturda osongina bajariladi.



3-rasm. Yer gorizontallari

Yer gorizontallarini avtomatlashtirilgan dastur asosida o'tkazilib olingandan so'ng, hosil bo'lgan topografik sirtga dambani qurish uchun ikkita parallel to'g'ri chiziq orasidagi masofa berilgan bo'ladi, ushbu parallel chiziqlar damba tojining kengligini bildiradi. Damba toji kengligi orasidagi masofa odatda beriladi.

masalan damba asosiy konturi 2 ta o'zaro parallel bo'lgan to'g'ri chiziqlardan iborat bo'lsa, unda to'g'ri chiziq o'tkazish uchun istalgan gorizontaldan 2 ta nuqta tanlanadi. Analitik geometriyada usullariga ko'ra berilgan 2 ta (x_1, y_1) , (x_2, y_2) nuqtalardan faqat bir dona to'g'ri chiziq o'tkaziladi (1).

$$\frac{x-x_1}{x_2-x_1} = \frac{y-y_1}{y_2-y_1} \quad (1)$$

Ushbu formula orqali berilgan to'g'ri chiziqning analitik ifodasi ya'ni tenglamasi topiladi (2):

$$y = \frac{y_2-y_1}{x_2-x_1}x + \frac{x_2y_1-x_1y_2}{x_2-x_1} \quad (2)$$

shundan so'ng, berilgan to'g'ri chiziqqa dambaning kenglik masofasi quyilib o'zaro parallel bo'lgan to'g'ri chiziqni o'tkazish talab qilinadi. Bunda:

Berilgan to'g'ri chiziqning umumiy tenglamasi formulasiga asosan $Ax+By+C=0$ yordamida:

$$d = |x_d \cos \alpha + y_d \sin \alpha - p| \quad (3)$$

$$\text{Bundan: } \cos \alpha = \pm \frac{A}{\sqrt{A^2+B^2}} \quad \sin \alpha = \pm \frac{B}{\sqrt{A^2+B^2}} \quad P = \mp \frac{C}{\sqrt{A^2+B^2}} \quad (4)$$


Masalan: $x+y+1=0$ umumiy tenglama bilan berilgan to'g'ri chiziqqa dambaning yuqori asos kengligi $d=10\text{m}$ hisoblab parallel to'g'ri chiziq chizilsin:

$$d = |x_d \cos \alpha + y_d \sin \alpha - p|$$

$$\text{Ushbu formula orqali } \cos \alpha = \frac{1}{\sqrt{1^2+1^2}} = \frac{1}{\sqrt{2}}, \quad \sin \alpha = \frac{1}{\sqrt{2}}, \quad P = \frac{1}{\sqrt{2}}$$

Berilgan tenglamani yechish natijasida o'zaro parallel bo'lgan to'g'ri chiziq tenglamalari topiladi: (4-rasm)


$$\begin{aligned} 10 &= \left| x_d \frac{1}{\sqrt{2}} + y_d \frac{1}{\sqrt{2}} - \frac{1}{\sqrt{2}} \right| \\ 10 &= x_d \frac{1}{\sqrt{2}} + y_d \frac{1}{\sqrt{2}} + \frac{1}{\sqrt{2}} \\ 10\sqrt{2} &= x_d + y_d + 1 \\ x_d + y_d - 14,1 &= 0 \end{aligned}$$



4-rasm. O‘zaro parallel bo‘lgan to‘g‘ri chiziq chizmasi.


Qiyalik suniy gorizontallarini o‘tkazish uchun to‘g‘ri chiziq'larga $y = k_1x + b_1$ va $y = k_2x + b_2$ perpendikulyar o‘tkazishda analitik geometriya usullariga ko‘ra $k_1 k_2 = -1$ holatida to‘g‘ri chiziqqa perpendikulyar bo‘lgan to‘g‘ri chiziq o‘tkaziladi.

damba gidrotexnik inshootining tuproq ishlar chegarasini topishda qiyalik mashtablari aniqlab olinadi, unga ko‘ra qiyalik loyihanin tuzilishiga ko‘ra turli xil bo‘lishi mumkin. Qiyalik tuproqning xossasiga ko‘ra turlicha berilgan meyor asosida olinadi. Masalan, qiyalik $i=1:1$, $i=1:1.5$ bo‘lsa va dambaning asosiy tanasiga parallel qilib suniy gorizontallari o‘tkaziladi. Suniy gorizontallarni o‘tkazish jarayoni ham yuqoridagi berilgan to‘g‘ri chiziqqa orasidagi masofani quyib parallel to‘g‘ri chiziq o‘tkazish formulasi yordamida topiladi, ya‘ni dambaning asosiy konturiga qiyalik mashtab chiziqlari $\lambda=1m$, $\lambda=1,5m$ masofalarni quyib parallel to‘g‘ri chiziq o‘tkaziladi (5-rasm).




5-rasm. Qiyalik mashtab chiziqlari orqali o‘tkazilgan suniy gorizontallar.

suniy gorizontallar berilgan qiyaliklar orqali o‘tkazilgandan so‘ng, suniy gorizontallar va tabiiy gorizontallarning bir nomli gorizontallari kesishma nuqtalari belgilab olinadi so‘ngra topilgan nuqtalar o‘zaro yuqoridagi kubik spline funktsiya yordamida tutashtirib chiqiladi, natijada hosil bo‘lgan egri chiziq tuproq ishlari chegarasini aniqlaydi (6-rasm).




6-rasm. Damba inshootining loyiha chizmasi.


7-rasmda dambaning A-A yo‘nalish bo‘yicha ko‘ndalang profili, 8-rasmda yer sirtining uch o‘lchamli modeli va 9-rasmda esa yuqoridagi 2D o‘lchamlar asosida dambaning 3D modeli keltirilgan.



7-rasm. Dambaning A-A yo‘nalish bo‘yicha ko‘ndalang profili.



8-rasm. Yer sirtning uch o‘lchamli modeli.



9-rasm. Yuqoridagi 2D o‘lchamlar asosida dambaning 3D modeli

Dissertatsiyaning “**Yer sirtida turli uchastkalarini murakkablik darajasini analitik usullari**” deb nomlangan ikkinchi bobida yer sirti murakkabligini aniqlash jarayonini raqamli holatda taxlil qilishga qaratilgan. Lekin raqamli holatda yer sirti murakkabligini taxlil qilishning asosiy kamchiliklardan biri undagi xatolik ko‘rsatkichlarining yuqoriligi bilan ajralib turadi. Shu nuqtai nazardan, raqamli holatda taxlil qilish jarayoniga geometrik va matematik modellashtirish usullarini qo‘llash, tegishli o‘zgartirishlar kiritilganda undagi aniqlik darajasi ko‘rsatkichlari nisbatan yuqori bo‘lishini ta‘minlab beruvchi algoritmlar va tavsiyalar ishlab chiqish usullari taklif qilingan. B.S Heifetzning va Xromchenko A.V. dastlabki tadqiqot ishlarida topografik relyef rejasidan olingan ma‘lumotlar asosida ehtimollar nazariyasi va matematik statistika usullari bilan relyefning murakkablik darajasini aniqlashga yondashuv mavjud.

Relyefning murrabligini aniqlash muammolarini hal qilishda yangi yondashuvni aniqlashdir. Buning uchun har qanday sirtning geometrik

xususiyatlarini baholashga imkon beradigan umumiy topologiya usullari qo‘llaniladi. Ushbu muammoni hal qilishda geometrik yondashuv ko‘rib chiqildi.

Topografik sirtida ixtiyoriy metrikaning ikkita uchi nuqtasi ajratiladi $\{x_i\} \in X$ va Gauss egriligi quyidagicha aniqlanadi.

$$W^{\wedge} = \pm 2\pi - \theta, \quad (4)$$

Bunda θ – nuqtaga eng yaqin piramida uchining burchaklari yig‘indisi.

Egriligi musbat yoki manfiy bo‘lgan nuqtani muhim deb qabul qilinadi, nolinchi darajaga ega bo‘lgan nuqtalarni esa ahamiyatsiz deb ataladi.

Muhim balandlik 1-egrilik darajasiga ega, agar $\frac{3}{2}\pi < W_1 < 2\pi$. 2- darajali egrilik agarda $\pi < W_2 < \frac{3}{2}\pi$. 3-darajali egrilik agarda $\frac{\pi}{2} < W_3 < \pi$. 4-darajali egrilik agarda $0 < W_4 < \frac{\pi}{2}$

Yo‘qoridagi egrilik darajalari egrilik ko‘rsatkichi manfiy bo‘lgan nuqtalar uchun ham amal qiladi. Nuqtaning tekislikka nisbatan joylashishiga qarab topografik sirtida 6 xil balandliklar mavjud.

Agarda egrilik musbat bo‘lsa uni α_1 tipidagi balandlik deb ataladi $W^+ = 2\pi - \theta > 0$. z ; musbat egrilik nuqtasi bo‘lsa α_2 , tipidagi balandlik $W^+ = 2\pi - \theta > 0$. Agar nuqta manfiy egrilikka ega bo‘lsa, γ tipidagi balandlik deb ataladi $W^- = 2\pi - \theta < 0$.

$\beta_1, \beta_2, \beta_3$ tipidagi balandlik – agar nuqta nolinchi darajali egrilikka ega, ya’ni tekislikda joylashgan bo‘lsa $W = 2\pi - \theta \approx 0$.

Yo‘naltiruvchi tekislikning joylashuvi muhim, chunki klassik differensial geometriyada doimo sirtini aylantirish, “ko‘chirish” va uni kuzatuvchi uchun qulay holatga keltirish imkoniyati qabul qilinadi, topografik sirtlarni o‘rganishda ham bunday imkoniyat mavjud.

Relyef uchastkasining balandliklar matritsasini ko‘rib chiqamiz:

$$\begin{bmatrix} z_{11} & \dots & z_{1n} \\ \dots & \dots & \dots \\ z_{n1} & \dots & z_{nn} \end{bmatrix} \quad (5)$$

$$\Delta_1 = \frac{|(z_{1,n} - 2z_{1,n+1} + z_{1,n+z})| + |(z_{2,n} - 2z_{2,n+2} + z_{1,n+z})| + |(z_{2,n} - 2z_{2,n+1} + z_{2,n+z})|}{h}$$

$$\Delta_2 = \frac{|(z_{n,1} - 2z_{n+1,1} + z_{n+2,1})| + |(z_{n,2} - 2z_{n+1,2} + z_{n+2,2})| + |(z_{n,2} - 2z_{n+1,2} + z_{n+2,2})|}{h}$$

Bundan tashqari, matritsaning diagonali bo‘ylab chekli farqlari aniqlandi:

$$\Delta_3 = \frac{|(z_{1,n} - 2z_{2,n+1} + z_{3,n+2})| + |(z_{n,1} - 2z_{n+1,2} + z_{n+2,3})|}{h\sqrt{2}}$$

Bu yerda h matritsa qadamini ifodalaydi.

Quyidagi matritsa dastlabki ma‘lumotlarni tahlil qilish orqali matritsaning eng tashqi ustunlari va satrlarini almashtiradi:


$$\begin{bmatrix} \alpha_1 & \dots & \beta_1 \\ \alpha_2 & \dots & \beta_2 \\ \dots & \dots & \dots \\ \beta_1 & \dots & \beta_2 \end{bmatrix} \quad (6)$$

bu yerda, $\alpha_{1,2\dots}, \beta_{1,2,3}$ yuqorida ko‘rib chiqilgan topografik sirt balandliklarining turlari.

$\Delta_1, \Delta_2, \Delta_3$ ni tahlil qilganda ma’lum bir hududning o‘ziga xos xususiyatlarini ochishga imkon beradi.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan metodologiya “Relyef murakkabligi” kompyuter dasturida amalga oshiriladi va muayyan muammolarni hal qilish uchun ishlatiladi. 10-rasmda sirt va uning matritsasi ko‘rsatilgan.

$$[B] = \begin{bmatrix} 14.01 & 14.01 & 14.20 & 14.31 & 14.41 & 14.51 & 14.31 & 14.21 & 14.31 & 14.31 \\ 14.10 & 14.01 & 14.01 & 14.31 & 14.41 & 13.71 & 13.81 & 14.61 & 14.61 & 14.31 \\ 14.21 & 14.21 & 14.30 & 14.41 & 13.31 & 13.71 & 14.51 & 14.51 & 14.41 & 14.21 \\ 14.21 & 14.31 & 14.41 & 13.41 & 14.51 & 14.51 & 14.41 & 14.41 & 14.31 & 14.21 \\ 14.31 & 14.41 & 13.51 & 14.21 & 14.31 & 14.21 & 14.31 & 14.32 & 14.21 & 14.22 \\ 14.31 & 14.01 & 13.60 & 13.70 & 14.01 & 14.01 & 14.11 & 14.11 & 14.01 & 14.01 \\ 14.11 & 13.91 & 13.20 & 13.31 & 13.41 & 13.21 & 13.31 & 13.02 & 13.01 & 13.01 \\ 14.01 & 13.61 & 13.20 & 13.21 & 13.11 & 13.01 & 13.11 & 13.21 & 13.01 & 13.01 \\ 14.11 & 13.51 & 13.10 & 13.21 & 13.11 & 13.21 & 13.01 & 12.01 & 12.81 & 12.81 \\ 14.21 & 14.01 & 14.10 & 13.32 & 12.81 & 12.81 & 12.61 & 12.51 & 12.52 & 12.51 \end{bmatrix}$$



10-rasm Sirt modeli

Relyef hududining murakkablik darajasini aniqlash uchun miqdoriy ko‘rsatkichlar kiritiladi.

Agar Δ_1, Δ_2 ko‘rsatkichlar $0 < \Delta_1 < 1.0, 0 < \Delta_2 < 1.0$ oralig‘ida joylashgan bo‘lsa, bo‘limga 1 raqami beriladi.

Agar $1.0 < \Delta_1 < 3.0, 1.0 < \Delta_2 < 3.0$ bo‘lsa, bo‘limga 2-raqam beriladi.

Agar $3.0 < \Delta_1 < 5.0, 3.0 < \Delta_2 < 5.0$ bo‘lsa, bo‘limga 3-raqam beriladi.


Agar $5.0 < \Delta_1 < 7.0, 5.0 < \Delta_2 < 7.0$ bo‘lsa, bo‘limga 4 raqami beriladi.

Hammasi bo‘lib, “Relyef murakkabligi” dasturida “0” dan “10” gacha raqamlar berilishi mumkin. $|B|$ matritsasi quyidagi shaklga aylantiriladi:

$$|B| = \begin{bmatrix} 2 & 2 & 3 & 3 & 2 \\ 2 & 3 & 3 & 2 & 2 \\ 3 & 3 & 2 & 2 & 3 \\ 2 & 3 & 2 & 3 & 3 \\ 3 & 2 & 3 & 3 & 2 \end{bmatrix}$$

Tuproq ishlar hajmini hisoblash uchun yuqorida keltirilgan algoritmlar asosida hududning uch o‘lchamli modeli ishlab chiqildi va bir xil hajmdagi gidrotexnik inshootni hududning turli joylariga qurilishi nuqtai-nazaridan tuproq ishlar hajmi

hisoblab chiqildi va optimal bo‘lgan ya’ni tuproq ishlar hajmi kam bo‘lgan hudud tanlab olindi: (11-rasm)



11-rasm. Turli murakkablikdagi yer hududiga qo‘yilgan damba inshootlari hajmi

Dissertatsiyaning “**Gidrotexnika inshootlarini loyihasini eng maqbul variantlarini tanlash usullari**” nomli uchinchi bobda gidrotexnika inshootlarini loyihalash jarayoni samaradorligini oshirish maqsadida optimal loyiha tuzish nazariyasi usullaridan foydalaniladi.

Loyihaning optimal variantini tanlab olish jarayoni algoritmi tuzib chiqilgan: gidrotexnik to‘g‘on (damba) inshooti loyiha chizmasini tuzib chiqish algoritmlari va nishablikni tanlab olishda tuproqning berilgan standart talabiga muvofiq xossalriga ko‘ra beshta variant tuzib chiqilgan loyiha variantlari orasidan eng optimal variantini tanlab olish algoritmi ishlab chiqildi

- Tuzib chiqilgan loyiha variantlari ichidan eng optimal loyiha variantini tanlash uchun Pareto optimal usullarini qo‘llash maqsad qilib olinadi;

1-variantda qiyalikni $i=1:2.5$, $i=1:3$ deb olindi va dambaning asosiy tanasiga parallel qilib suniy gorizontallarni o‘tkazildi. Suniy gorizontallarni o‘tkazish jarayoni ham yuqoridagi berilgan to‘g‘ri chiziqqa orasidagi masofani qo‘yib parallel to‘g‘ri chiziq o‘tkazish formulasi yordamida topildi, ya’ni to‘g‘onning asosiy kontur chizig‘iga qiyalik masshtablari chizig‘ini ya’ni $\lambda=2.5m$, $\lambda=3m$ masofa quyilib o‘zaro parallel bo‘lgan to‘g‘ri chiziq o‘tkazildi.

1-loyiha chizmasi: $m_q = 2.5$, $m_y = 3$, 2-loyiha chizmasi: $m_q = 2.4$, $m_y = 2.9$, 3-loyiha chizmasi: $m_q = 2.1$, $m_y = 2.8$, 4-loyiha chizmasi: $m_q = 2.3$, $m_y = 2.7$, 5-loyiha chizmasi: $m_q = 2.2$, $m_y = 2.6$

Pareto optimal usullariga muvofiq quyidagi mezonlar tuzib olindi:

k_1 – loyiha chizmasini tuzib chiqishning umumiy narxlar

k_2 – injiner tomonidan loyiha chizmalarini tuzib chiqishga ketadigan vaqt

k_3 – tuzib chiqilgan gidrotexnik inshoot loyihasini qurish uchun ketadigan transport xarajatlari.

Jadval shaklida buni quyidagicha ta’riflash mumkin: (1-jadval)

Gidrotexnik inshoot loyiha chizmasi variantlari

<i>Gidrotexnik inshoot loyiha chizma variantlari</i>	<i>k_1, loyiha chizmasini tuzib chiqishning umumiy narxlari (mln. Sum)</i>	<i>k_2, injener tomonidan loyiha chizmalarini tuzib chiqishga ketadigan vaqt, (soat)</i>	<i>k_3, tuzib chiqilgan gidrotexnik inshoot loyihasini qurish uchun ketadigan transport xarajatlari (mln. Sum)</i>
1	45	20	40
2	30	25	50
3	80	25	30
4	110	20	35
5	110	35	40

